



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedراسi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevalilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





## BANK MAJBURIYATLARI HISOBI VA ICHKI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH



### Muminova Parvina Ilhom qizi

*Bank hisobi va auditi kafedrası*

*(PhD) tayanch doktoranti*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*E-mail: [parvinailhomovna08@gmail.com](mailto:parvinailhomovna08@gmail.com)*

*ORCID: 0009-00067879-8800*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda bank tizimining bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini yuritishda yuzaga kelayotgan mavjud muammolar atroflicha o`rganildi, hamda muammo dolzarbligi va zarurati ko`rib chiqildi. Shuningdek jahon tan olgan mamlakatlar bank tizimining faoliyatidagi ushbu ko`rsatkichlar roli alohida tahlillar asosida o`rganilib muammoga yechim sifatida muqobil taklif va tavsiyalar berildi.

**Kalit so`zlar:** bank tizimi, bank majburiyatlari, bank hisobi, bank auditi, soliq maslahatchisi, auditorlik riski, yashil energiya, «yashil moliyalashtirish» portfeli, depozit diversifikatsiyasi, nohosilaviy depozitlar, qarz vositalari, 9-son MHXS, soliq maslahatchisi, Bazel III.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ БАНКОВСКИХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ: БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ И ВНУТРЕННИЙ АУДИТ

### Муминова Парвина Ильхамовна

*(PhD) докторант*

*кафедры банковского учета и аудита*

*Ташкентский государственный*

*экономический университет*

*E-mail: [parvinailhomovna08@gmail.com](mailto:parvinailhomovna08@gmail.com)*

*ORCID: 0009-00067879-8800*

**Аннотация.** В данной статье всесторонне рассматриваются существующие проблемы учета и внутреннего аудита банковских обязательств в банковской системе нашей страны, а также рассматривается актуальность и необходимость данной проблемы. Кроме того, на основе отдельных анализов изучается роль этих показателей в деятельности банковских систем стран мирового уровня, и предлагаются альтернативные решения проблемы.

**Ключевые слова:** банковская система, банковские обязательства, банковский учет, банковский аудит, налоговый консультант, аудиторский риск, зеленая энергетика, портфель «зеленого финансирования», диверсификация депозитов, неденежные депозиты, долговые инструменты, МСФО 9, налоговый консультант, Базель III.

## IMPROVING BANK LIABILITIES ACCOUNTING AND INTERNAL AUDIT

### Muminova Parvina Ilhom kizi

*Department of Bank Accounting and Audit*

*(PhD) Basic Doctoral Student*

*Tashkent State University of Economics*

*E-mail: [parvinalhomovna08@gmail.com](mailto:parvinalhomovna08@gmail.com)*

*ORCID: 0009-00067879-8800*

**Abstract.** This article comprehensively studies the existing problems in the accounting and internal audit of bank liabilities in our country's banking system, and considers the relevance and





*necessity of the problem. Also, the role of these indicators in the activities of the banking system of world-renowned countries is studied on the basis of separate analyses, and alternative proposals and recommendations are given as solutions to the problem.*

**Keywords:** *banking system, bank liabilities, bank accounting, bank audit, tax consultant, audit risk, green energy, “green financing” portfolio, deposit diversification, non-cash deposits, debt instruments, IFRS 9, tax consultant, Basel III.*

### Kirish

Hozirgi kunda bank sektoridagi tizimli xavf-xatarlarning ortishi hamda xalqaro moliyaviy munosabatlarning globallasuvi sharoitida bank majburiyatlari hisobi va auditining metodologik asoslarini MHXS talablariga muvofiqlashtirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyotida bank aktivlari va majburiyatlari oʻrtasidagi nomutanosiblik oqibatida yuzaga keladigan likvidlik inqirozlari bankrotliklarning asosiy sababi boʻlib qolmoqda. Statistik maʼlumotlarga koʻra, soʻnggi yillarda dunyo miqyosida bank majburiyatlarining tarkibida depozit boʻlmagan manbalar (qarz qimmatli qogʻozlari va banklararo kreditlar) ulushi oʻrtacha 15-20% gacha koʻtarilgan boʻlib, bu ularni baholash va audit qilishda 9-son MHXS boʻyicha kutilayotgan kredit zararlari modelini qoʻllashni taqozo etadi. Shu bois, dissertasiyada bank majburiyatlarini tan olish va baholashning xalqaro andozalarga asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish nafaqat ilmiy, balki global moliyaviy barqarorlikni taʼminlash nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi.

Shuningdek, Oʻzbekiston bank tizimini transformatsiya qilish va davlat ulushiga ega banklarni xususiyashtirish jarayonida majburiyatlar sifatini ichki nazorat va tashqi audit orqali shaffofligini taʼminlash milliy iqtisodiyot uchun oʻta dolzarbdir. Respublika bank tizimida jami majburiyatlar hajmi yil sayin oʻsib bormoqda masalan, 2024 yil boshiga kelib tijorat banklarining jami majburiyatlari qariyb 550 trln soʻmdan oshgan boʻlib, bu oʻtgan yilga nisbatan sezilarli oʻsishni koʻrsatadi, biroq jalb qilingan mablagʻlar tarkibida muddatli depozitlarning ulushi hamon xalqaro koʻrsatkichlardan pastligicha qolmoqda. Bunday sharoitda bank majburiyatlari auditining metodologik bazasini takomillashtirish, ayniqsa masofaviy audit va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali auditorlik riskini kamaytirish mahalliy banklarning xalqaro reytinglarini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada taklif etilayotgan hisob siyosati va audit tartib-taomillari mahalliy banklarning moliyaviy hisobotlari ishonchliligini oshirish va xorijiy investorlar uchun jozibadorligini taʼminlashda amaliy yechim boʻla oladi.

### Adabiyotlar sharhi

Ilmiy adabiyotlarda bank majburiyatlari tushunchasi keng talqin qilinadi: «ular nafaqat tijorat banklarining tashqi qarz majburiyatlari, balki ichki moliyaviy majburiyatlar, shartli majburiyatlar, shuningdek moliyaviy vositalar orqali yuzaga keladigan talab va majburiyatlarni ham oʻz ichiga oladi»[39]. Mahalliy olimlarimizdan Sh.Z.Abdullayeva oʻz ilmiy tadqiqotlarida “bankning passiv operatsiyasi - banklarning vaqtinchalik boʻsh pul mablagʻlarini jalb qilish bilan bogʻliq operatsiyalari passiv operatsiyalar hisoblanadi. Bankning asosiy vazifalaridan biri boʻsh pul mablagʻlarini mumkin qadar koʻproq jalb qilish va ulami boshqa foyda keltiruvchi optimal aktivlarga joylashtirishdan iborat” – deb taʼkidlaydi.[2]

M.Gʻ.Kenjaye, N.S.Ernazarovlar tomonidan quyidagi fikrlar bildirib oʻtilgan, “bank resurslarini tashkil etish bilan bogʻliq boʻlgan operatsiyalari – passiv operatsiyalar deyiladi. Passiv operatsiyalar bank oborotiga chetdan mablagʻlar jalb etish va oʻz mablagʻlarini tashkil etish bilan bogʻliq operatsiyalardan iboratdir. Bank resurslari uning majburiyatlari va oʻzining kapitalidan tashkil topadi. Bank faoliyatining yana bir asosiy oʻziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uning resurslari asosan chetdan jalb etilgan majburiyatlaridan tashkil topadi”.[3]

<sup>39</sup>Saunders, A., & Cornett, M. (2021). Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. McGraw-Hill Education.





### Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada guruhlash, taqqoslash, ilmiy mushohada, iqtisodiy-statistik tahlil, induksiya va deduksiya hamda tadqiqot natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar

Rivojlangan mamlakatlar bank tizimi amaliyotida bank muassasalarida yo'qotishlarni qoplash va zaxira kapitalni yaratish uchun yetarli miqdorda o'z mablag'lari va tegishli majburiyatlarni (qarz vositalari) saqlash talab etiladi. Bankning majburiyatlari bank operatsiyalarini moliyalashtirishda asosiy rol o'ynaydi. Majburiyatlarning muddati va barqarorligini tahlil qilish banklarga ularning likvidligini samarali boshqarishga yordam beradi. Mijozlarning omonatlari va banklararo qarzlari kabi qisqa muddatli majburiyatlar bankning bevosita majburiyatlarini bajarish uchun yetarli mablag'ga ega bo'lishini ta'minlash uchun qattiq nazorat qilinishi kerak. Majburiyat tuzilmasini tahlil qilish orqali banklar o'zlarining likvidlikka bo'lgan ehtiyojlarini rejalashtirishlari, qisqa muddatli va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari o'rtasida tegishli muvozanatni saqlashlari va likvidlik risklarini kamaytirishlari mumkin.

Tadqiqotimiz jarayonida rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar hamda davlatimiz bank tizimi majburiyatlar hisobi va ichki auditini takomillashtirishga doir tahlillarimiz doirasida ko'plab taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu takliflar davlatimiz bank tizimini yanada rivojlantirib, moliya bozorida bank reytingini yuqori darajaga olib chiqishiga asosiy omil bo'ladi deb o'ylaymiz. Ilmiy izlanishlarimiz va tahlillarimiz natijasida biz quyidagilarni taklif qildik:

**1. O'zini o'zi band qilgan shaxslar bank kartalari va majburiyatlarini hisobga olish taklifi.** O'zini o'zi band qilgan shaxslarga maxsus bank kartalari ochish va ularning majburiyatlarini alohida balans hisobvarag'ida yuritish taklifining asosiy afzalliklari: *Hisob va tahlilning aniq bo'lishi* o'zini o'zi band qilgan shaxslar mablag'lari boshqa jismoniy shaxslardan ajraladi. Bank o'zini o'zi band qilgan shaxslar segmenti bo'yicha alohida: qoldiq hajmi, foiz xarajatlari, komissiya daromadlari, aylanma va aktivlik darajasini aniq ko'ra oladi. Bu segment rentabelligini raqamlar bilan isbotlash imkonini beradi. *Arzon va barqaror resurs bazasi* o'zini o'zi band qilgan shaxslar kartalaridagi qoldiqlar odatda kichik, ko'p sonli va past foizli bo'ladi. Alohida hisobvara orqali: O'zini o'zi band qilgan shaxslar depozitlarining o'rtacha foiz stavkasi, barqaror (uzoq muddatli) qismi alohida hisoblanadi.

1-jadval.

### O'zini o'zi band qilgan shaxslar bo'yicha bank kartalari va majburiyatlar hisobini yuritish jadvali

Tartib raqami (TR/№)	Mijoz ID/INN	F.I.Sh.	Status (o'zini o'zi band qilgan)	Bank kartasi raqami (so'nggi 4 raqam)	Kartani ochish sanasi	Hisob goldig'i (UZS)	Kredit majburiyatlari (jami, UZS)	To'lov muddati (sana)	Foiz stavkasi (%)	Kechiktirilgan to'lov mavjudligi (ha/yo'q)	Eslatma/izoh
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	512345678	Ahmedov Bekzod Karimovich	Ha	**** 4567	15.01.2023	2,540,000.00	12,000,000.00	15.11.2024	18%	Yo'q	Oylik daromad 7.2 mln
2	523456789	G'ulomova Nargiza Saidalievna	Ha	**** 1234	22.03.2023	875,320.00	8,500,000.00	10.12.2024	20%	Ha	2 kunlik, to'lov kutilmoqda
3	534567890	Sayidov Otabek Rustamovich	Ha	**** 9876	05.05.2022	10,215,900.00	0.00	-	-	Yo'q	Kredit majburiyati yo'q
4	524456781	Datov Bekzod Karimovich	Ha	**** 4568	15.01.2023	2,540,000.00	12,000,000.00	15.11.2024	18%	Yo'q	Kredit majburiyati yo'q
5	512345672	Rakan Ro'rino	Ha	**** 4567	15.01.2023	875,320.00	0.00	-	-	Yo'q	
6	512345678	Hazidov Bekzok Mariamovich	Ha	**** 4567	15.01.2023	875,000.00	0.00	15.11.2024	20%	Yo'q	Kredit majburiyati yo'q
7	523456789	G'ulom Nargiza Saidalievna	Ha	**** 1234	22.03.2023	1,220,000.00	0.00	10.12.2024	20%	Yo'q	Kredit majburiyati yo'q
8	534567890	Sayidov Otabek Rustamovich	Ha	**** 9876	05.05.2022	0.00	0.00	10.11.2024	18%	Yo'q	

\*Muallif ishlanmasi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar shaxslar bo'yicha majburiyatlarni alohida balans hisobvarag'ida yuritish tijorat banklariga: segment bo'yicha aniq rentabellikni hisoblash, arzon





resurs bazasini kengaytirish, maxsus mahsulot va kreditlarni asoslash, xavf va komplayensni yaxshilash, regulyator hisobotlarini soddalashtirish imkonini beradi. Bu esa bank majburiyatlari hisobini takomillashtirishning amaliy va raqamlar bilan isbotlanuvchi yo‘nalishidir.

**2. Maqsadli hisobvaraqlar orqali «yashil energiya» loyihalarini moliyalashtirish.** Maqsadli hisobvaraqlar orqali «yashil energiya» loyihalarini moliyalashtirish – tijorat banklari majburiyatlari (depozit va boshqa jalb qilingan mablag‘lar) hisobini takomillashtirishga ham bevosita ta’sir qiladigan taklif. Afzalliklarini bank majburiyatlari hisobi nuqtai nazaridan qisqa, aniq tahlil qilsak, maqsadli hisobvaraqlar – “belgilangan maqsadli majburiyat” sifatida aniq tasniflanadi. Oddiy depozit – umumiy resurs, qaysi yo‘nalishga ketishi aniq bog‘lanmaydi. “Yashil energiya” maqsadli hisobvaraqlari – ma’lum maqsadga yo‘naltiriladigan majburiyat: bu hisobvaraqlardagi mablag‘lar faqat yashil loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Maqsadli hisobvaraqlar orqali «yashil energiya» loyihalarini moliyalashtirish taklifi: tijorat banklarida majburiyatlarni maqsad, muddat va foiz shartlari bo‘yicha aniqroq tasniflashga olib keladi; foiz xarajatlari, likvidlik va foiz xavfini boshqarish, sof foiz marjasini tahlil qilish uchun yangi, aniq axborot bazasi yaratadi; xalqaro “green finance” va ESG andozalariga mos, shaffof va tahliliy jihatdan kuchli majburiyatlar hisobini shakllantiradi. Shu orqali bank majburiyatlari hisobi takomillashadi va butun bank tizimi uchun “yashil” moliyalashtirishni samarali boshqarish imkoniyati kengayadi.

**3. Ichki audit va kommunikatsiya samaradorligini oshirish.** Ichki audit va kommunikatsiya samaradorligini oshirish orqali majburiyatlar hisobiga oid siyosat, protsedura va risklar bo‘yicha aniq, tezkor va to‘liq axborot almashinuvi ta’minlanadi. Bu esa tijorat banklarida majburiyatlar bo‘yicha xatolar va suyiiste’mollarni erta aniqlash, foiz va likvidlik xavfini real baholash hamda boshqaruv qarorlarini sifatliroq va xalqaro talablarga mos qabul qilish imkonini beradi.

Ichki audit va kommunikatsiya samaradorligini oshirish tijorat banklarida majburiyatlar hisobini uchta asosiy yo‘nalishda sezilarli yaxshilaydi; har birini qisqa tahlil va sodda misol bilan ko‘rsataman:

1) *Ma’lumotlar aniqligi va mosligini oshirish* Tahlil: majburiyatlar (depozitlar, qarzlilar, soliqlar, kafolatlar) bo‘yicha ma’lumotlar ko‘pincha buxgalteriya, risk-menejment va biznes bo‘limlarda turlicha shaklda turadi; kuchli ichki audit va yaxshi kommunikatsiya bu ma’lumotlarni yagona standartda solishtirib, xatolarni erta topishga yordam beradi. Misol: Buxgalteriyada yirik korporativ depozit 10 mlrd so‘m deb turibdi, shartnomada 8 mlrd so‘m, risk-bo‘lim tizimida 9 mlrd so‘m ko‘rinadi.

Ichki audit ushbu tafovutni topib, bo‘limlar bilan tezkor aloqa orqali to‘g‘ri summani aniqlaydi; natijada balansdagi majburiyat to‘g‘rilanadi, foiz xarajatlari va likvidlik tahlili ham real ko‘rinishga keladi.

2) *Risk va xatolarni erta aniqlash* Tahlil: samarali ichki audit + doimiy kommunikatsiya majburiyatlar bo‘yicha foiz, muddat, valyuta va shartlardagi nomuvofiqliklarni erta bosqichda ushlab qoladi, bu esa foiz, likvidlik va huquqiy risklarni kamaytiradi. Misol: Shartnomada depozit stavkasi 14% deb belgilangan, lekin, IT tizimga xatolik bilan 18% kiritilgan. Ichki audit muntazam ravishda shartnoma ma’lumotlarini tizimdagi yozuvlar bilan solishtirgani uchun bu xatoni tez topadi; agar topilmasa, bank ortiqcha foiz to‘laydi, majburiyatlar bo‘yicha foiz xarajatlari asossiz oshadi, foyda kamayadi va hisobot buziladi.

3) *Boshqaruv qarorlari va xalqaro talablarga moslikni yaxshilash* kuchli ichki audit natijalari muntazam ravishda boshqaruv, risk qo‘mitasi va kuzatuv kengashiga ochiq yetkazilsa, bank majburiyatlarining tarkibi, qiymati, tannarxi va risklari bo‘yicha qarorlar real ma’lumotlarga asoslanadi; bu IFRS va Bazal talablariga mos shaffof hisobotni ta’minlaydi. Misol: Ichki audit hisobotida ko‘rsatiladi: qisqa muddatli, yuqori stavkali depozitlar ulushi juda katta, ammo buxgalteriya hisobi va boshqaruv hisobotlarida to‘liq aks etmagan.

Natijada bank bo‘yicha qisqa muddatli qimmat depozitlarni qisqartirish, uzoq muddatli va arzonroq majburiyatlarga o‘tish, foiz riskini kamaytirish bo‘yicha strategiya qabul qilinadi. Shu





tarzda, ichki audit va kommunikatsiya majburiyatlar hisobini nafaqat “to‘g‘ri raqamlar” bilan, balki boshqaruv uchun foydali, tahliliy axborot manbaiga aylantiradi.

Umuman olganda, ichki audit va kommunikatsiya samaradorligini oshirish majburiyatlar bo‘yicha ma‘lumotlarni yagona standartda, aniq va o‘zaro mos qilish, xatolar va risklarni erta aniqlash, hamda real raqamlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini berib, tijorat banklarida majburiyatlar hisobini ham shaffof, ham boshqaruvga qulay tizim darajasiga olib chiqadi.

**4. Soliq majburiyatlarini mustaqil ekspert orqali tekshirish.** Soliq majburiyatlarini mustaqil ekspert orqali tekshirish tijorat banklarida majburiyatlar hisobining aniqligi va soliqqa oid risklar darajasini ob‘ektiv baholashga, yashirin xatolar va noto‘g‘ri e‘tirof etilgan majburiyatlarni erta aniqlash orqali jarima va da‘volarni kamaytirishga hamda xalqaro talablarga mos, ishonchli moliyaviy hisobot asosida majburiyatlar boshqaruvi va qaror qabul qilish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

1-rasm.

TIJORAT BANKIDA SOLIQ MAJBURIYATLARINI MUSTAQIL EKSPERT ORQALI TEKSHIRISH NATIJASIDA ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH		
	HOZIRGI HOLAT (ICHKI AUDIT)	TAKLIFDAN KEYINGI HOLAT (ICHKI AUDIT + MUSTAQIL EKSPERTIZA)
1) Soliq majburiyatlari hisobini qamrab olish darajasi	Cheklangan, qisman qamrov	Kengaytirilgan, to‘liq qamrov
2) Xatolarni aniqlash tezligi	Sust, kechikkan	Tezkor, samarali
3) Soliq xavflarini baholash sifati	Past, yuzaki	Yuqori, chuqur tahlilga asoslangan
4) Ichki nazorat tizimi zaifliklarini ochib berish	Cheklangan, tizimli kamchiliklar saqlanadi	To‘liq yoritilgan, zaif nuqtalar bartaraf etilgan
5) Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi	Past darajadagi ishonchlilik	Yuqori darajadagi ishonchlilik, shaffof
6) Regulyator va soliq organlari bilan munosabatlar	Noaniq, potentsial nizoli	Barqaror, ishonchli hamkorlik
7) Jarima va da‘volar xavfi	Yuqori tavakkalchilik	Minimal, minimallashtirilgan xavf
8) Boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifati	Axborot yetishmasligi sababli sekin	Ma‘lumotlar asosida tezkor va asosli

\*AXS 37 hamda “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun asosida muallif ishlanmasi[5]

### Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, davlatimiz bank tizimining rivojlanish strategiyasini to‘g‘ri qo‘ygan holda, jahon amaliyotidan andoza olib uni bank tizimimizga keragicha amaliyotga joriy etilsa rivojlangan mamlakatlar bank tizimiga nisbatan davlatimiz bank tizimi ham raqobatbardosh hamda, o‘z mavqeyini yanada yuqorilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunda mamlakatimizda olib borilayotgan bank tizimiga oid islohotlar, hamda ilmiy izlanuvchi tadqiqotchi olimlarning samarali mehnati muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bank majburiyatlarini tahlil qilish moliyaviy hisobot tahlilining ajralmas qismi hisoblanadi. Bank majburiyatlarining tahlili va auditi moliyaviy ma‘lumotlarning ishonchliligini ta‘minlash va manfaatdor tomonlarning bank faoliyatiga ishonchini saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu bankning moliyaviy holatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan har qanday potentsial majburiyatlarni aniqlashga yordam beradi, risklarni boshqarish va moliyaviy hisobotlar bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Z.Abdullaeva (2018). Pul va banklar. Darslik. – T.: “Iqtisodiyot-moliya”, 2018 – 756





b.

2. MG'.KenjayeV, NSErnazarov (2022). Banklarda buxhalteriya hisobi, tahlili va auditi. (1 qism). Darslik. – T.: “Nihol print”, 2022 – 208 b.

3. Muminova Parvina Ilhom qizi. (2025). Bank majburiyatlarining mazmuni va mohiyati. Frontline Marketing, Management and Economics Journal, 5(03), 31–34.  
<https://doi.org/10.37547/marketing-fmmej-05-03-03>

4. Umarov Z. A., Muminova P. I. TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARI AUDITINING NAZARIY ASOSLARI HAMDA YURITILISH TARTIBI //XALQARO KONFERENTLAR. – 2022. – T. 1. – №. 1. – S. 50-54.

5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.02.2021 yildagi O‘RQ-677-son

6. <https://lex.uz/acts/-4966554>

7. [https://en.wikipedia.org/wiki/Liability\\_%28financial\\_accounting](https://en.wikipedia.org/wiki/Liability_%28financial_accounting).

